ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nozliya Normurodova

Mas’ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Nurboy Jabborov, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzoq Jo‘raqulov, Zulxumor Xolmanova, Ziyoda Teshaboyeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulxumor Ortiqova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Tahrir hay’ati

Nazef Shahrani (AQSH)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)
Ahmadali Asqarov (O‘zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Akmal Nur (O‘zbekiston)
Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Muzaffar Komilov (O‘zbekiston)
Tanju Seyhan (Turkiya)
Akmal Saidov (O‘zbekiston)
Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san’at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoev, Samikhon Ashirboev, Nurboy Jabborov, Farhod Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzak Jurakulov, Zulkhumor Khalmanova, Ziyoda Teshaboeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulkhumor Ortikova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)
Elisabetta Ragagnin (Italy)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)
Akmal Nur (Uzbekistan)
Almaz Ülvi (Azerbaijan)
Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Tanju Seyhan (Turkey)
Akmal Saidov (Uzbekistan)
Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Nicholas Kontovas (Great Britain)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova
Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi 6

Nurbek Ahmadjonov
O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari 24

Aynel Mashadiyeva
Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi 41

Firuz Abdusalomov
Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning semantik transformatsiyasi 58

Elnare ALİYEVA
Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA
Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova
Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi 95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova
“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov
Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatik modellashtirish 119

SOTSIOLOGIYA

Komil Kalanov
Sun’iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili 133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov
Samarqand bozorlari tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari 156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova
The realization of emotional deixis in children's speech 6

Nurbek Ahmadjonov
Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse 24

Aynel Mashadieva
Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic Languages and Dialects 41

Firuz Abdusalomov
Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary Media Discourse 58

Elnare ALİEVA
Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages 71

LITERATURE

Almaz Ulvi BİNNATOVA
Encyclopedic Thinking and the Artistic Representatıon of Spiritual Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my dove, fly").....83

Mohida Qodirova
From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Yorkinoy Nasirdinova
"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov
Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov
Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies .133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov
The History and Distinctive Features of Samarkand Markets 156

ISSN 2181-922X 24—40

O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari

Nurbek Ahmadjonov[1]

Abstrakt

Maqolada o‘zbek va nemis tillaridagi korporativ boshqaruv hamda rahbar-xodim muloqot diskursida nutq odobining (politeness) pragmatik, semantik va strukturaviy-sintaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Ijtimoiy iyerarxiya, assimmetrik munosabatlar va milliy mentalitetning muloqot jarayoniga ta’siri tadqiqotning markaziy obyektidir. O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining tarixiy-grammatik taraqqiyoti, xususan, XX asr boshlaridagi ilk lingvistik manbalardagi olmoshlar va fe’l shakllari tasnifi bugungi pragmatik muloqot asoslari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi. Nemis tilidagi korporativ tenglik, to‘g‘ridan-to‘g‘rilik (Direktheit) va masofaviy rasmiylik tamoyillari o‘zbek tilidagi yuzni saqlash, yosh iyerarxiyasi va bilvosita ifoda (mitigatsiya) usullariga chog‘ishtirildi. Maqolada murojaat shakllarining asimmetrik diskursdagi ishtiroki, direktiv nutqiy aktlar (buyruq, iltimos), e’tiroz bildirish strategiyalari hamda yozma elektron muloqot (e-mail) pragmatikasi real korporativ nutqiy vaziyatlar hamda ularning morfologik transformatsiyalari asosida mufassal dalillangan.

Kalit so‘zlar: *rahbar-muloqot diskursi, nutq odobi, asimmetrik muloqot, imperativ aktlar, korporativ elektron muloqot, pragmatika, institutsional kommunikatsiya, imperativ shakllar, illokutiv aktlar.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika, diskurs tahlili hamda sotsiolingvistika yo‘nalishlarining rivojlanishi natijasida institutsional muloqotni tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, korporativ va boshqaruv tizimlarida yuzaga keladigan rahbar-xodim o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar bugungi kunda lingvistik tadqiqotlarning dolzarb obyektlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki bunday muloqot oddiy axborot almashish jarayoni emas, balki ijtimoiy mavqe, hokimiyat, mas’uliyat

[1] *Ahmadjonov Nurbek* – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Farg‘ona davlat universiteti.
Email: akhmadjonovnurbek@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3271-0852
Iqtibos uchun: Ahmadjonov, N. 2026. “O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 24 – 40.

va kommunikativ strategiyalar o‘zaro kesishadigan murakkab pragmatik hodisa hisoblanadi [Searle 1969, 22; Schiffrin 1994, 33]. Institutsional diskursda kommunikantlarning nutqiy xatti-harakati ularning jamiyatdagi statusi, kasbiy vazifasi hamda ijtimoiy rollari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli rahbar va xodim o‘rtasidagi asimmetrik muloqotni tadqiq qilish nafaqat til birliklarining funksional imkoniyatlarini, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning til orqali qanday ifodalanishini ham ochib beradi.

Korporativ kommunikatsiya jarayonida nutqning asosiy vazifasi faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklanib qolmaydi. Bunday muloqot orqali boshqaruv jarayoni tashkil etiladi, mehnat intizomi nazorat qilinadi, jamoa ichidagi munosabatlar muvofiqlashtiriladi hamda ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Ayniqsa, rahbar nutqida buyruq, tavsiya, ogohlantirish, rag‘batlantirish yoki tanbeh kabi illokutiv aktlar faol qo‘llaniladi. Xodim nutqida esa itoat, rozilik, tushuntirish, uzr yoki murosa kabi pragmatik strategiyalar ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan rahbar-xodim diskursi hokimiyat va subordinatsiya munosabatlarini ifodalovchi institutsional kommunikatsiyaning muhim shakli hisoblanadi.

Pragmatik nazariyalarda bunday kommunikativ munosabatlarni izohlashda P. Braun va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan “Yuzni saqlash” (“Face-saving”) nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, har qanday nutqiy aktda kommunikantlarning “ijtimoiy yuzi”, ya’ni obro‘si va shaxsiy mavqeyini saqlab qolish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, asimmetrik diskursda rahbarning buyruq yoki talab shaklidagi nutqi xodimning kommunikativ erkinligiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli muloqot davomida ijtimoiy masofa, hokimiyat darajasi va madaniyatga xos tahdid og‘irligi hisobga olinadi [Brown & Levinson 1987, 61]. Natijada kommunikantlar yuzni saqlash strategiyalaridan – bilvosita murojaat, yumshatish, hurmat shakllari yoki diplomatik ifodalardan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Turli tillarda rahbar-xodim muloqoti milliy mentalitet, madaniy qadriyat va kommunikativ an’analar ta’sirida shakllanadi. Ayniqsa, tipologik jihatdan turli til oilalariga mansub bo‘lgan o‘zbek va nemis tillaridagi boshqaruv diskursini qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy natijalar beradi. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, unda kommunikativ odob va iyerarxik munosabatlarni ifodalovchi vositalar keng rivojlangan. Nemis tili esa german tillari guruhiga kirib, unda rasmiylik, aniqlik va mantiqiy strukturaga asoslangan

kommunikativ model ustuvor hisoblanadi. Shu sababli ikki til doirasidagi rahbar-xodim diskursi turli pragmatik mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbek korporativ muloqotida sharqona kommunikativ madaniyatning ta’siri kuchli seziladi. Bunda yoshi kattalarga hurmat, ijtimoiy mavqeni e’tirof etish, kollektiv manfaatni ustuvor qo‘yish, paternalistik boshqaruv tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. Rahbar ko‘pincha jamoaning mas’ul shaxsi va ma’naviy yetakchisi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli uning nutqida muloyimlik, bilvositalik va hurmat ifodalovchi birliklar faol qo‘llanadi. Masalan, buyruq mazmunidagi fikrlar ham “iltimos”, “ma’qul topsangiz”, “imkon bo‘lsa” kabi yumshatuvchi vositalar orqali ifodalanadi. Bu holat o‘zbek kommunikativ madaniyatida ijtimoiy uyg‘unlik va hurmat prinsipining ustuvor ekanligini ko‘rsatadi.

Nemis boshqaruv diskursida esa kommunikativ jarayon ko‘proq ratsional va vazifaga yo‘naltirilgan xarakter kasb etadi. Nemis korporativ madaniyatida individual mas’uliyat, vaqtning aniq rejalashtirilishi, ochiq fikr bildirish hamda rasmiy masofani saqlash muhim kommunikativ norma sifatida qaraladi. “Sachlichkeit” (obyektivlik) va “Distanz” (rasmiy masofa) tamoyillari rahbar va xodim o‘rtasidagi nutqiy munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois nemis tilidagi buyruq va ko‘rsatmalar ko‘pincha aniq, qisqa va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda ifodalanadi. Biroq bunda ham kommunikativ etikani saqlash maqsadida modal fe’llar, rasmiy murojaat shakllari va standart pragmatik formulalardan foydalaniladi.

O‘zbek tilshunosligida muloqot va grammatik qurilishning tarixiy-pragmatik ildizlari

Zamonaviy o‘zbek rahbar-muloqot diskursidagi nutq odobi, kommunikativ strategiyalar hamda ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi lingvistik vositalarni to‘laqonli anglash uchun ularning tarixiy shakllanish bosqichlarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi boshqaruv kommunikatsiyasida qo‘llanilayotgan hurmat shakllari, buyruqning yumshatilgan ko‘rinishlari, murojaat birliklari va bilvosita direktiv konstruksiyalar uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi. O‘zbek tilidagi kommunikativ odob tizimi faqat zamonaviy pragmatik ehtiyojlar natijasi emas, balki turkiy til tafakkuri, sharqona ijtimoiy iyerarxiya hamda an’anaviy muloqot madaniyatining tarixiy davomiyligi asosida shakllangan murakkab lingvokulturologik hodisadir.

XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining grammatik tizimi va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishda Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxojaning 1913-yilda yozilgan “Turkcha qoida” asari alohida ilmiy qimmatga ega. Mazkur asar jadid davri tilshunosligining muhim namunalaridan biri bo‘lib, unda turkiy til grammatikasi ilk bor tizimli ravishda tavsiflangan [Karimxoja 1913, 6]. Asarda til birliklari faqat morfologik yoki sintaktik hodisa sifatida emas, balki kommunikativ vazifasi bilan ham izohlanganligi kuzatiladi. Shu jihatdan “Turkcha qoida” o‘zbek tilidagi pragmatik munosabatlarning tarixiy ildizlarini o‘rganishda tayanch manbalardan biri hisoblanadi.

Rahbar va uning qo‘l ostidagi xodim o‘rtasidagi asimmetrik muloqotning asosiy pragmatik markazi bo‘lgan shaxs kategoriyasi asarda kishilik olmoshlari tizimi orqali batafsil tasniflangan. Muhammad Karimxoja zamiri shaxsni mutakallim (so‘zlovchi), muxotab (tinglovchi) va g‘oyib (o‘zga shaxs) shakllariga ajratadi hamda ularning mufrad (birlik) va jam (ko‘plik) ko‘rinishlarini ko‘rsatadi. Ushbu tasnif nafaqat grammatik tizimni izohlashga, balki ijtimoiy munosabatlarni til orqali ifodalash mexanizmlarini anglashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, mufrad va jam oppozitsiyasi keyinchalik o‘zbek tilidagi “sen” va “siz” munosabatlarining pragmatik asosini shakllantirgan.

Bugungi o‘zbek boshqaruv diskursida “siz” shakli oddiy ko‘plik ma’nosidan tashqariga chiqib, hurmat, ijtimoiy masofa, subordinatsiya va kommunikativ odobning asosiy ko‘rsatkichiga aylangan. Rahbar-xodim munosabatlarida “siz” olmoshining qo‘llanishi nafaqat etik norma, balki institutsional kommunikatsiyaning majburiy pragmatik talabi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy manbalarda ko‘plik affikslarining –lar va –lär shaklida berilishi ham ushbu kategoriyaning qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Dastlab miqdor ifodalovchi grammatik vosita bo‘lgan mazkur affikslar vaqt o‘tishi bilan sotsial-pragmatik funksiyani ham bajara boshlagan. Natijada o‘zbek tilida ko‘plik shakli hurmat va ehtirom ifodalovchi kommunikativ markerga aylangan. Masalan, “otangiz keldilar”, “domla aytdilar” kabi birliklarda grammatik ko‘plik real miqdorni emas, balki ijtimoiy maqom va hurmat darajasini bildiradi.

Bu holat turkiy tillarda grammatik kategoriyalarning pragmatiklashuv jarayoni mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tilshunoslikda bunday hodisa “grammatik birlikning sotsial indeksga

aylanishi" sifatida talqin qilinadi. Demak, o‘zbek tilidagi rahbar-muloqot odobining tarixiy ildizlari aynan kishilik olmoshlari va ko‘plik kategoriyasining pragmatik funksiyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Rahbar nutqining asosiy kommunikativ vositasi hisoblangan direktiv aktlarning grammatik ifodasi ham "Turkcha qoida" asarida alohida o‘rin egallaydi. Muhammad Karimxoja o‘zbek (uning terminologiyasida "turkiy") tilidagi fe'l shakllarining 23 turini sanab o‘tadi. Bu esa XX asr boshlaridayoq turkiy tillarda fe'l kategoriyasining nihoyatda murakkab va funksional tizimga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ushbu shakllar ichida, ayniqsa, amri hozir kategoriyasi boshqaruv kommunikatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Asarda "o‘qu", "yoz", "kel", "bor" kabi sof imperativ shakllar bevosita buyruq va topshiriqni ifodalovchi grammatik vosita sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, inkor shakllari – "o‘quma", "yozma" kabi konstruktsiyalar ham qat'iy direktiv mazmunni anglatgan. O‘sha davr ijtimoiy munosabatlarida bunday imperativ shakllar kommunikativ jihatdan tabiiy va normativ birlik hisoblangan. Chunki an'anaviy sharqona jamiyatda iyerarxik munosabatlar ancha qat'iy bo‘lib, rahbar yoki yoshi kattalarning buyruq shaklidagi nutqi odatiy hol sifatida qabul qilingan.

Biroq til taraqqiyoti va kommunikativ madaniyatning evolyutsiyasi natijasida zamonaviy o‘zbek boshqaruv diskursida sof imperativ shakllarning qo‘llanish doirasi sezilarli darajada toraygan. Bugungi korporativ muloqotda qat'iy buyruq shakllari ko‘pincha qo‘pol yoki avtoritar ohang sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli rahbarlar direktiv mazmunni ifodalashda evfemistik va mitigatsion strategiyalardan foydalanadilar. Buyruqning to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakli o‘rnini bilvosita sintaktik qurilmalar egallagan. Masalan, "Hisobotni tayyorlang" kabi qat'iy imperativ o‘rniga "Hisobotni bugun tayyorlasangiz yaxshi bo‘lardi" yoki "Shuni bugun ko‘rib chiqib qo‘ysangiz" kabi yumshatilgan konstruktsiyalar qo‘llanadi. Bu hodisa pragmatik nuqtayi nazardan direktiv aktning mitigatsiyasi, ya'ni kommunikativ bosimini kamaytirish jarayoni hisoblanadi. Zamonaviy o‘zbek rahbar-muloqotida buyruqning bilvositalashuvi sharqona odob, kollektivistik tafakkur va "yuzni saqlash" strategiyasi bilan bog‘liqdir. Demak, bugungi boshqaruv kommunikatsiyasidagi yumshoq pragmatik usullar tarixiy grammatik tizim negizida shakllangan bo‘lib, ularning ildizlari XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining grammatik va kommunikativ me'yorlariga borib taqaladi.

Shunday qilib, "Turkcha qoida" asari nafaqat tarixiy grammatika manbasi, balki o‘zbek tilidagi institutsional muloqot,

rahbar-xodim diskursi hamda nutq odobining tarixiy-pragmatik asoslarini yorituvchi muhim lingvistik hujjat hisoblanadi. Ushbu manba orqali zamonaviy o‘zbek boshqaruv kommunikatsiyasida qo‘llanilayotgan hurmat kategoriyasi, bilvosita buyruq strategiyalari va kommunikativ mitigatsiya vositalarining tarixiy ildizlarini ilmiy asosda izohlash mumkin bo‘ladi.

Murojaat shakllarining leksik-pragmatik maydoni

Murojaat shakllari institutsional muloqotning eng muhim pragmatik komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki rahbar va xodim o‘rtasidagi kommunikativ munosabatning qanday ohangda – rasmiy, norasmiy, masofali yoki samimiy tarzda kechishi ko‘p jihatdan aynan murojaat birliklari orqali belgilanadi. Pragmatik nuqtayi nazardan murojaat shakllari oddiy nominativ birlik emas, balki kommunikativ vaziyatning ijtimoiy parametrlarini ifodalovchi lingvistik indikator vazifasini bajaradi. Ular orqali suhbatdoshlarning o‘zaro maqomi, subordinatsiya darajasi, ijtimoiy masofa, yosh tafovuti va kommunikativ niyat namoyon bo‘ladi. Shu sababli murojaat shakllari diskursning pragmatik strukturasini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

O‘zbek tilidagi murojaat tizimi sharqona kommunikativ madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda insoniy munosabatlar va ijtimoiy odob tamoyillari rasmiy institutsional me’yorlardan ko‘ra ustunroq mavqega ega. O‘zbek korporativ diskursida murojaat shakllari faqat lavozim yoki maqomni emas, balki hurmat, samimiylik va jamoaviy birdamlikni ham ifodalaydi. Ayniqsa, yosh iyerarxiyasi o‘zbek kommunikativ madaniyatida muhim pragmatik omil sanaladi. Shu bois rahbar o‘zidan yoshi katta bo‘lgan xodimga sof ism bilan emas, balki “aka”, “opa”, “domla”, “ustoz” kabi ehtirom bildiruvchi birliklar orqali murojaat qiladi [Mo‘minov 2011, 73]. Masalan: “Alisher aka, kechagi moliyaviy hisobotni zudlik bilan buxgalteriyaga topshirib yuboring” gapida “aka” leksemasi biologik qarindoshlikni emas, balki ijtimoiy hurmatni ifodalamoqda. Bu yerda buyruq aktining keskinligi qarindoshlik terminining qo‘llanishi orqali yumshatilmoqda. Pragmatik jihatdan qaralganda, rahbar buyruq natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik bosimni kommunikativ jihatdan kompensatsiya qilmoqda. Ayniqsa, rahbar yosh jihatdan xodimdan kichik bo‘lsa, bunday murojaat shakllari ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasiga aylanadi.

O‘zbek tilidagi murojaat birliklarining yana bir muhim xususiyati ularning grammatik hurmat kategoriyasi bilan integratsiyalashganligidir. Ismga hurmat affikslari yoki ko‘plik shaklining qo‘shilishi institutsional muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan: “Aziza, buyruq loyihasini tayyorlab qo‘ying-a” jumlasida “-ing” affiksi va “-a” yuklamasi buyruqning pragmatik og‘irligini kamaytirib, muloyim ohang hosil qilmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilida ko‘plik affiksi “-lar” ham hurmat ifodalovchi vosita sifatida faol qo‘llanadi: “Dilbar opa keldilarmi?”, “Rustam aka hujjatlarni ko‘rib chiqdilarmi?” kabi birliklarda grammatik ko‘plik real miqdorni emas, balki ehtirom ma’nosini ifodalaydi. Bunday kommunikativ model o‘zbek tilidagi kollektivistik tafakkur va ijtimoiy uyg‘unlik tamoyillari bilan bog‘liqdir. Rahbarning xodimga qarindoshlik terminlari orqali murojaat qilishi jamoa ichidagi masofani qisqartiradi, rasmiy sovuqlikni yumshatadi va birdamlik hissini kuchaytiradi. Shu sababli o‘zbek biznes diskursida murojaat shakllari ko‘pincha “solidarity strategy”, ya’ni kommunikativ yaqinlik strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nemis korporativ madaniyatida esa murojaat shakllari asosan professional masofa va institutsional tenglik prinsipiga asoslanadi. Nemis biznes diskursida yosh omili o‘zbek tilidagi kabi markaziy pragmatik faktor hisoblanmaydi. Asosiy e’tibor korporativ status, lavozim va rasmiy kommunikativ etikaga qaratiladi. Shu sababli klassik nemis korporativ kommunikatsiyasida “Sie” kishilik olmoshi va “Herr/Frau + familiya” modeli qat’iy norma hisoblanadi. Bu model muloqotga obyektivlik va professionallik bag‘ishlaydi. Masalan: “Herr Müller, könnten Sie bitte um 10 Uhr zu mir ins Büro kommen?” (“Janob Myuller, iltimos, soat 10 da mening xonamga kira olasizmi?”) jumlasida murojaatning barcha komponentlari rasmiy kommunikativ masofani saqlashga xizmat qilmoqda. “Herr” va “Sie” birliklari ijtimoiy hurmatni bildirsa-da, ular emotsional yaqinlikni emas, professional etikani ifodalaydi. Nemis kommunikativ madaniyatida bunday rasmiy model sovuq munosabat emas, balki professional me’yor sifatida qabul qilinadi.

So‘nggi yillarda nemis biznes diskursida “Du-Kultur” deb ataluvchi yangi kommunikativ tendensiya ham shakllanmoqda. Ayniqsa IT, media va startap kompaniyalarida barcha xodimlarning bir-biriga “du” shaklida murojaat qilishi keng tarqalgan [Erlich 2014, 52]. Agar kompaniya ichida “duzen” tizimi rasman joriy etilgan bo‘lsa, direktor ham, oddiy xodim ham ism bilan murojaat qiladi: “Thomas, schick mir bitte das Protokoll.” Bu holatda

“du” shakli subordinatsiyani emas, balki jamoaviy tenglik va ochiq kommunikatsiyani bildiradi. Nemis biznes madaniyatidagi “flache Hierarchien” (“tekis iyerarxiyalar”) konsepsiyasi aynan shu til modeli orqali ifodalanadi.

O‘zbek tilida esa rahbarning xodimni “sen”lashi ko‘pincha ijtimoiy ustunlik yoki avtoritar pozitsiyani anglatuvchi pragmatik signal sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, rasmiy ish muhitida “sen” shakli kommunikativ masofani qisqartirishdan ko‘ra, subordinatsiyani keskin ta’kidlashi mumkin. Shu jihatdan o‘zbek va nemis tillaridagi murojaat tizimi turli madaniy qadriyatlarni aks ettiradi: o‘zbek kommunikativ madaniyatida hurmat va ijtimoiy uyg‘unlik ustuvor bo‘lsa, nemis biznes diskursida professionallik, institutsional tenglik va funksional obyektivlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval 1. *Murojaat shakllaridagi pragmatik va lingvistik tafovutlar*

Parametr / Mezon	**O‘zbek korporativ diskursi**	**Nemis korporativ diskursi**
Iyerarxiya qurilish asosi	Yosh, hayotiy tajriba, ijtimoiy maqom	Yuridik pozitsiya, professional tenglik
Dominant murojaat shakli	Ism + Aka/Opa; Ism + Ota ismi (-vich)	Herr/Frau + Familiya; Ism (Du-Kultur)
Pragmatik masofa	Yaqinlik (Solidarity), oilaviy iyerarxiya	Masofaviylik (Distanz), qat'iy obyektivlik
"Sen"lash (Du) funksiyasi	Avtoritar ustunlik yoki yaqinlik	Zamonaviy jamoaviy tenglik

Direktiv nutqiy aktlarning lingvistik jihatlari

Institutsional diskursda, ayniqsa, korporativ va boshqaruv kommunikatsiyasida direktiv nutqiy aktlar markaziy o‘rin egallaydi. Chunki rahbar va xodim o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarning asosiy qismi aynan topshiriq berish, buyruq qilish, vazifa yuklash, maslahat berish, ogohlantirish yoki rag‘batlantirish kabi direktiv xarakterdagi nutqiy aktlar orqali amalga oshadi. J. Searle tasnifiga ko‘ra, direktiv aktlar tinglovchini muayyan harakatni bajarishga undovchi illokutiv birliklar hisoblanadi [Searle 1969, 66]. Shu sababli biznes jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarning direktiv strategiyalarni qay darajada pragmatik jihatdan to‘g‘ri tanlay olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Pragmatika va nutq odobi nazariyalarida har qanday buyruq yoki topshiriq kommunikantning ijtimoiy erkinligiga ta’sir qiluvchi “Face-Threatening Act” (ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi akt) sifatida talqin qilinadi. Chunki buyruq tinglovchining

mustaqil qaror qabul qilish huquqini ma'lum darajada cheklaydi. Shu sababli turli madaniyatlarda direktiv aktlarning ifodalanish shakllari kommunikativ odob, ijtimoiy masofa va milliy mentalitet asosida turlicha namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek va nemis tillaridagi rahbar-xodim diskursida bu farqlar juda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek rahbar-muloqot madaniyatida sof imperativ shakldagi buyruqlar ko'pincha haddan tashqari keskin, avtoritar yoki xodim shaxsiyatiga bosim o'tkazuvchi holat sifatida qabul qilinadi. Sharqona kommunikativ an'anaga ko'ra, rahbar topshiriqni imkon qadar yumshoq, diplomatik va bilvosita shaklda ifodalashga harakat qiladi. Shu bois o'zbek tilida buyruqning to'g'ridan-to'g'ri imperativ modeli o'rniga shart mayli, ehtimollik yoki taklif mazmunini anglatuvchi grammatik vositalar faol qo'llaniladi. Masalan: "Uchinchi chorak hisobotini bugun tushgacha tayyorlasangiz, juda yaxshi bo'lardi" gapida rahbar aslida topshiriq bermoqda, biroq buyruq shakli yumshatilgan holda ifodalangan. Bu yerda "-sa" shart mayli va "bo'lardi" shakli pragmatik jihatdan iltimos, maslahat va topshiriq o'rtasidagi oraliq kommunikativ effektni yuzaga keltiradi. Natijada buyruqning bosimi kamayadi va xodimning "ijtimoiy yuzi" saqlab qolinadi.

O'zbek tilining yana bir muhim xususiyati uning analitik fe'l shakllariga boyligidir. Rahbar nutqida topshiriqning keskinligini pasaytirish, ish-harakatni "yengillashtirib" ko'rsatish yoki kommunikativ bosimni kamaytirish maqsadida ko'makchi fe'llardan keng foydalaniladi. Masalan: "Mijozlarning shartnomalariga tezda imzo qo'yib yuboring" jumlasida "-ib yubor" konstruktsiyasi ishning tez va ortiqcha murakkabliksiz bajarilishini anglatadi. Bu shakl sof "imzo qo'ying" buyrug'iga nisbatan yumshoqroq eshitiladi. Shuningdek, "-ib qo'y", "-ib chiqing", "-ib o'ting" kabi yordamchi fe'llar ham rahbar nutqida direktiv aktlarning pragmatik og'irligini kamaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbek biznes diskursida inklyuzivlik yaratish strategiyasi ham keng tarqalgan. Rahbar topshiriqni bevosita xodim zimmasiga yuklash o'rniga, o'zini ham jarayonning bir qismi sifatida ko'rsatadi. Bunda 1-shaxs ko'plik shakli ("biz") va so'roq konstruktsiyalari faol qo'llanadi. Masalan: "Bugun kechgacha shu smetani yopib keta olamizmi?" gapi grammatik jihatdan savol shaklida bo'lsada, pragmatik jihatdan buyruq yoki topshiriq vazifasini bajaradi. Bu usul xodimda jamoaviylik hissini uyg'otadi hamda rahbarning kommunikativ ustunligini keskin ko'rsatib yubormaydi. Shu tariqa

o‘zbek rahbarlik diskursida direktiv aktlar ko‘pincha bilvosita va yumshatilgan strategiyalar orqali amalga oshiriladi.

Nemis tilidagi korporativ muloqot esa aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘rilik va funksional aniqlik tamoyiliga asoslanadi. Nemis boshqaruv madaniyatida vaqt, vazifa va natija muhim o‘rin egallagani sababli direktiv nutqiy aktlar qisqa, aniq va tushunarli shaklda ifodalanadi. “Direktheit und Sachlichkeit” (to‘g‘ridan-to‘g‘-rilik va obyektivlik) tamoyili nemis kommunikativ madaniyatining asosiy belgilaridan biridir. Shu sababli nemis rahbarlari buyruq maylidan (Imperativ) bemalol foydalanadilar, biroq kommunikativ odobni saqlash uchun uni ko‘pincha “bitte” (“iltimos”) so‘zi bilan yumshatadilar [Lüger 2001, 34]. Masalan: “Kommen Sie bitte rechtzeitig zum Meeting” (“Iltimos, uchrashuvga o‘z vaqtida keling”) gapida buyruq aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan bo‘lsa-da, “bitte” leksik birligi orqali muloyimlik effekti yuzaga keltirilgan.

Nemis tilidagi eng muhim pragmatik yumshatish vositalaridan biri Konjunktiv II shaklidir. Ushbu grammatik konstruktsiya direktiv aktning kategorik xarakterini kamaytirib, uni diplomatik va hurmatli shaklga olib keladi. Masalan: “Ich wäre Ihnen sehr dankbar, wenn Sie dieses Projekt bis Freitag abschließen könnten” (“Agar ushbu loyihani jumagacha yakunlay olsangiz, sizdan minnatdor bo‘lardim”) jumlasida rahbar topshiriqni iltimos va minnatdorchilik bilan uyg‘unlashtirgan holda ifodalamoqda. Bu usul nemis biznes diskursida yuqori darajadagi professional kommunikativ madaniyat belgisi hisoblanadi. Shuningdek, nemis boshqaruv kommunikatsiyasida modal fe’llar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek rahbarlari “majbursan”, “shart” kabi birliklarni ochiq qo‘llashdan ko‘pincha qochsalar, nemis tilida müssen (“zarur”, “majbur”) va sollen (“kerak”) modal fe’llari ish jarayonining tabiiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan: “Wir müssen die Verkaufszahlen steigern” (“Biz savdo ko‘rsatkichlarini oshirishimiz shart”) jumlasida zarurat aniq va ochiq ifodalangan. Nemis kommunikativ madaniyatida bunday ifoda bosim emas, balki umumiy maqsad va professional mas’uliyatning ifodasi sifatida qabul qilinadi.

Demak, o‘zbek va nemis tillaridagi direktiv nutqiy aktlar lingvistik va pragmatik jihatdan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek rahbarlik diskursida buyruqning yumshatilishi, bilvositalik, inklyuzivlik va kommunikativ diplomatiya ustuvor bo‘lsa, nemis biznes muloqotida aniqlik, ratsionallik va funksional to‘g‘ridan-to‘g‘rilik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar har ikki xalqning

kommunikativ mentaliteti, ijtimoiy qadriyatlari hamda boshqaruv madaniyatidagi o‘ziga xosliklarni yaqqol namoyon etadi.

Tanqid, e'tiroz bildirish va konfliktni boshqarish strategiyalari

Rahbar-xodim diskursida tanqid bildirish, e’tiroz qilish va konfliktli vaziyatlarni boshqarish kommunikativ pragmatikaning eng murakkab va sezgir qatlamlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday nutqiy aktlar kommunikantlarning ijtimoiy “yuzi”ga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, shaxsiy obro‘si va jamoa ichidagi mavqeyiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli turli madaniyatlarda tanqidni ifodalash usullari va konfliktni yumshatish strategiyalari milliy mentalitet, kommunikativ odob hamda ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Ayniqsa, o‘zbek va nemis boshqaruv diskursida bu farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek kommunikativ madaniyatida tanqid ko‘pincha ehtiyotkorlik bilan ifodalanadi. Chunki sharqona mentalitetda ochiq e’tiroz yoki keskin tanbeh shaxsning obro‘siga putur yetkazuvchi holat sifatida qabul qilinishi mumkin. Natijada rahbarlar konfliktni kuchaytirib yubormaslik, xodimning “yuzini saqlab qolish” hamda jamoa ichidagi muvozanatni buzmaslik maqsadida bilvosita pragmatik strategiyalardan foydalanadilar. Tanqid odatda umumlashtirish, mavhumlashtirish, kinoya yoki metonimik ifodalar orqali yetkaziladi.

Masalan, “Kecha yuborilgan maktublarda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilibdi” kabi gaplarda aybdor shaxs aniq ko‘rsatilmaydi. Majhul nisbatdagi konstruktsiyalarning qo‘llanishi tanqidning keskinligini pasaytiradi hamda mas’uliyatni umumiy jarayon bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunday usul xodimning shaxsiy qadr-qimmatiga bevosita zarba bermasdan, muammoni yumshoq shaklda anglatishga xizmat qiladi.

O‘zbek rahbarlik diskursida kinoya ham muhim pragmatik vositalardan biri sifatida faol qo‘llaniladi. Masalan, “Ishni shunchalik tez qilasiz deb o‘ylamagandim” kabi iboralar tashqi jihatdan ijobiy shaklda ko‘rinsa-da, aslida salbiy baho yoki norozilikni ifodalaydi. Bunday indirekt strategiyalar orqali rahbar bir vaqtning o‘zida ham e’tiroz bildiradi, ham ochiq konflikt yuzaga kelishining oldini oladi. Bu holat o‘zbek madaniyatida kommunikativ diplomatiya va ijtimoiy uyg‘unlikning ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim vaziyatlarda haddan tashqari bilvositalik tanqidning aniq mazmunini tushunishni qiyinlashtirishi, xodim tomonidan noto‘g‘ri

interpretatsiya qilinishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Nemis biznes diskursida esa tanqid va geribildirim (Feedback) ancha ochiq, konkret va tizimli shaklda ifodalanadi. Nemis kommunikativ madaniyatida aniqlik, obyektivlik va vazifaga yo‘naltirilganlik muhim tamoyil hisoblangani sababli e’tirozlar mavhum iboralar yoki kinoya orqali emas, balki aniq dalillar asosida bildiriladi. Tanqid shaxsning o‘ziga emas, balki uning bajargan ish natijasiga qaratiladi. Shu jihatdan nemis boshqaruv madaniyatida “Output-orientation”, ya’ni faoliyat natijasiga baho berish prinsipi ustuvor hisoblanadi. Rahbar tanqidni bildirayotganda subyektiv hissiyotlardan ko‘ra fakt, muddat va ko‘rsatkichlarga tayanadi.

Nemis tilidagi korporativ muloqotda “Ich-Botschaft” (“Men-xabari”) strategiyasi keng qo‘llaniladi. Bunda rahbar o‘z fikrini shaxsiy kuzatuv yoki individual baho sifatida ifodalaydi. Masalan: “Ihre Präsentation war inhaltlich gut strukturiert, aber die vorgegebene Zeit wurde um 10 Minuten überschritten. Darauf müssen Sie beim nächsten Mal achten” (“Taqdimotingiz mazmun jihatidan yaxshi tuzilgan edi, lekin belgilangan vaqt 10 daqiqaga oshirib yuborildi. Keyingi safar bunga e’tibor qaratishingiz kerak”). Ushbu konstruksiyada tanqid aniq ko‘rsatkich – vaqt me’yorining buzilishi bilan asoslangan bo‘lib, xodimning shaxsiyatiga emas, aynan bajarilgan vazifaga qaratilgan. Shu sababli bunday yondashuv konfliktni emas, balki professional rivojlanishni rag‘batlantiruvchi konstruktiv geribildirim sifatida qabul qilinadi [Wierzbicka 2003, 112].

Nemis biznes muhitida konstruktiv tanqid professional kompetensiyani oshirish vositasi deb qaraladi. Shu sababli rahbar va xodim o‘rtasidagi ochiq geribildirim jarayoni mehnat samaradorligini oshirishning tabiiy qismi hisoblanadi. O‘zbek diskursida esa kommunikativ uyg‘unlik va hurmatni saqlash ustuvor bo‘lgani sababli tanqid ko‘proq bilvosita va ehtiyotkorlik bilan ifodalanadi. Demak, ikki til va madaniyatdagi konfliktni boshqarish strategiyalari bir-biridan keskin farq qiladi: o‘zbek kommunikativ madaniyatida munosabatlarni saqlash va “yuzni himoya qilish” muhim bo‘lsa, nemis biznes diskursida muammoni aniq ifodalash va uni ratsional hal qilish ustuvor hisoblanadi. Bu farqlar rahbar-xodim muloqotining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadval 2. *Direktiv aktlar va tanqidning lingvistik tahlili*

Diskurs jarayoni	O‘zbek tilidagi lingvistik jihati	Nemis tilidagi lingvistik jihatlari
Buyruqni yumshatish	Ko‘makchi fe'llar (*-ib yubor, -ib qo'y*)	Konjunktiv II (*könnten Sie, würde*)
Majburiyat uzatish	Inklyuzivlik (*qilamizmi, ko'ramizmi*)	Aniq modal fe'llar (*müssen, sollen*)
Tanqid qilish obyekti	Shaxsiyat, tajriba va umumiy xulq	Faqat konkret natija va faktlar
Tanqid strategiyasi	Majhul nisbat, yashirin kinoya	To'g'ridan-to'g'ri I- Message (Ich-Bot-schaft)

Yozma korporativ diskurs va elektron muloqot (E-mail) pragmatikasi

Zamonaviy boshqaruvda rahbar va xodim o‘rtasidagi asimmetrik munosabatlar nafaqat og‘zaki, balki yozma shaklda – korporativ e-mail va messenjerlar orqali ham faol amalga oshiriladi. Yozma diskursda intonatsiya va yuz ifodasi (paralingvistik vositalar) yo‘qolgani sababli, matnning pragmatik yuki to‘laligicha leksik va sintaktik vositalar zimmasiga tushadi. Ushbu muhitda o‘zbek va nemis tillaridagi nutq odobi qoidalari yanada yaqqol kontrast hosil qiladi [Neugebauer 2011, 66].

O‘zbek elektron korporativ diskursida politeness strategiyalari: O‘zbek biznes yozishmalarida (garchi u ichki korporativ xat bo‘lsa ham) an’anaviy maktubnavislik qoidalari va o‘ta yuqori darajadagi rasmiylik, ba'zan ortiqcha xushmuomalalik saqlanib qoladi.

● **Salomlashish va kirish:** O‘zbek rahbarlari yoki xodimlari e-mailni qat’iy ravishda "Assalomu alaykum" kabi to‘liq shaklli salomlashish bilan boshlaydi, unga qo‘shimcha ravishda "Hurmatli" leksemasi va yuqorida aytilgan "Aka/Opa" qoliplari ulanadi (*Misol: "Assalomu alaykum, Hurmatli Alisher aka"*). Xatning maqsadiga o‘tishdan oldin hol-ahvol so‘rash yoki vaqtini olayotgani uchun uzr so‘rash (Apology strategy) ko‘p uchraydi.

● **Matn strukturasi:** Xatda qo‘yilgan vazifa yoki buyruq ko‘pincha passiv qurilmalar yoki uzun izohlar ortiga yashirinadi. "Iltimos" leksemasidan tashqari "imkoni bo'lsa", "vaqtingiz bo'lganda", "qarab yuborsangiz" kabi shart va istak maylidagi fe'l formalaridan foydalanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri talab qilish darajasi pasaytiriladi.

● **Xotima:** Xat qat’iy hurmat belgilari bilan yakunlanadi: *"Hurmat va ehtirom bilan", "Javobingiz uchun oldindan rahmat"*.

Nemis elektron korporativ diskursida faktual rasmiylik: Nemis e-mail yozishmalarida eng asosiy qoidalar bular: tejamkorlik (Ökonomie), aniqlik (Präzision) va axborotning tezkor uzatilishi.

● **Salomlashish:** Nemis rasmiy e-maillari "Sehr geehrter Herr (Familiya) yoki "Sehr geehrte Frau (Familiya) (Hurmatli janob/xonim) bilan boshlanadi. Agar tashkilot ichida Du-Kultur yoki yarim-rasmiy munosabat o‘rnatilgan bo‘lsa, oddiygina Hallo (Ism) yoki Guten Morgen [Ism] shakllari qo‘llanadi. Hol-ahvol so‘rashdek (Smalltalk) jarayonlar yozma matndan mutlaqo qisqartiriladi [Luginbühl 2014, 23].

● **Axborot uzatish:** Salomlashishdan so‘ng darhol (ko‘pincha kichik harf bilan boshlab) asosiy masalaga o‘tiladi: *"ich schreibe Ihnen bezüglich..."* (Sizga ... masalasida yozyapman) yoki *"anbei erhalten Sie..."* (Ilovada ... ni qabul qilasiz). Hech qanday uzoq muqaddimalar qilinmaydi. Agar topshiriq berilayotgan bo‘lsa, qat'iy vaqt (Deadline) ko‘rsatiladi: *"Bitte senden Sie das Protokoll bis spätestens Freitag, 14:00 Uhr"* (Iltimos, bayonnomani kechi bilan juma kuni soat 14:00 gacha yuboring).

● **Xotima:** "Mit freundlichen Grüßen" (Do'stona salomlar bilan) iborasi eng standart va o‘zgartirilmas qolipdir. Ichki yozishmalarda uning qisqartmasi "VG" (Viele Grüße) keng qo‘llanadi.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek yozma diskursida munosabat (relationship-focused) va ijtimoiy yuzni asrash ustun bo‘lsa, nemis elektron diskursida natija va axborotni yo‘qotishlarsiz yetkazish (information-focused) tamoyili dominantlik qiladi.

Xulosa

O‘zbek va nemis tillaridagi rahbar-muloqot diskursini qiyosiy lingvopragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tillardagi nutq odobi strategiyalari faqatgina grammatik qoliplarga emas, balki bir-biridan tubdan farq qiluvchi madaniy va ijtimoiy qadriyatlarga ulanadi. O‘zbek rahbar-muloqot diskursida ijtimoiy iyerarxiya, yosh omili va sharqona hurmat toifalari ustunlik qiladi. Bu holat XX asr boshlaridagi manbalarda, jumladan, Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” (1913) asarida qayd etilgan qat’iy *amri hozir* va *zamiri shaxsi* tizimining zamonaviy sotsiologik talablarga moslashgan mitigatsion ko‘rinishidir. Nemis rahbar-muloqot diskursida esa “obyektiv professionallik” (Sachlichkeit), to'g'ridan-to'g'rilik (Direktheit) va jamoaviy tenglik tamoyillari mutlaq dominantlik qiladi. Yozma korporativ diskursda ham bu ziddiyatlar

aniq vizuallashib, o‘zbek tilidagi konvensional xushmuomalalik bilan nemis tilidagi axborot tejamkorligi o'zaro qarama-qarshi qutblarni tashkil etadi.

Adabiyotlar

Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. 1987. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.

Erlich, Silvia. 2014. *Hierarchie und Kommunikation: Der Einfluss von Macht auf die Sprache im Unternehmen*. München: Grin Verlag.

House, Juliane. 2005. “Politeness in Germany.” In *Politeness in Europe*, 13–28. Clevedon: Multilingual Matters.

Kasper, Gabriele, and Shoshana Blum-Kulka, eds. 1993. *Interlanguage Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.

Kienpointner, Manfred. 2008. “Impoverishing Pragmatics? The Case of Impoliteness.” *Journal of Pragmatics* 40, no. 2: 242–271.

Kiyasbekov, T. 1908. *Elementarnaya grammatika sartovskogo yazyka*. Tashkent: M. P. Basalov.

Kotthoff, Helga, and Helen Spencer-Oatey, eds. 2007. *Handbook of Intercultural Communication*. Berlin: Mouton de Gruyter.

Luginbühl, Martin. 2014. *Gesprächsdynamik in der Wirtschaft.* Bern: Peter Lang.

Lüger, Heinz-Helmut. 2001. *Höflichkeit und Höflichkeitsstile*. Frankfurt am Main: Peter Lang.

Makhmudov, Nizomiddin. 1998. *O‘zbek tilidagi so‘roq gaplarning pragmatikasi*. Toshkent: Ma’naviyat.

Mo‘minov, Sobirjon. 2011. *O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Muhammadrasul Rasuliy. 1911, 1914, 1917. *Rohbari forsi*. Toshkent.

Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxoja. 1913. *Turkcha qoida*. Toshkent.

Neugebauer, Monika. 2011. *Direktheit und Höflichkeit im interkulturellen Vergleich*. Frankfurt am Main: Lang.

Niyozova, Mohira. 2019. *Nemis va o‘zbek tillarida murojaat shakllarining pragmatik tadqiqi*. Buxoro: Durdona.

Normamatov, S. 2022. *O‘zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).* Toshkent: Bookmany Print.

Ogiermann, Eva. 2009. *On Apologising in Negative and Positive Politeness Cultures*. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins.

Searle, John R. 1969. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

Wierzbicka, Anna. 2003. *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Berlin: Mouton de Gruyter.

Xudoyberganova, Dilfuza. 2015. *Matnning antroposentrik tadqiqi*. Toshkent: Fan.

Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse

Nurbek Ahmadjonov[1]

Abstract

This comparative-pragmatic study systematically analyzes the semantic, structural-syntactic and sociolinguistic features of speech etiquette (politeness) within corporate management and leadership-communication discourse across the Uzbek and German languages. The profound impact of social hierarchy, asymmetrical power dynamics, and divergent national mentalities on the communication process constitutes the primary object of this research. The historical and grammatical development of address forms in Uzbek-specifically the meticulous classification of personal pronouns and imperative verb forms found in early 20th-century linguistic treatises-is critically examined in direct connection with contemporary pragmatic communication paradigms. The rigid principles of corporate egalitarianism, absolute directness (Direktheit), and formal professional distance inherent in German corporate culture are explicitly contrasted with the multifaceted face-saving strategies, deeply rooted age hierarchies, and elaborate indirect expression methods (mitigation) prevalent in Uzbek. The article rigorously proves the functional participation of address forms in asymmetrical discourse and extensively investigates the linguistic mitigation of directive speech acts (commands, requests), conflict-resolution strategies, as well as written corporate communication (email pragmatics) utilizing real-world corporate speech scenarios and morphological transformations.

Key words: *leadership-communication discourse, speech etiquette, asymmetrical communication, comparative pragmatics, personal pronouns, imperative acts, mitigation, corporate email communication, Uzbek language, German language, face-saving strategy.*

References

Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. 1987. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge

[1] *Ahmadjonov Nurbek* – Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Fergana State University.
E-mail: akhmadjonovnurbek@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3271-0852
For citation: Ahmadjonov, N. 2026. "Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 24 – 40.

University Press.
Erlich, Silvia. 2014. *Hierarchie und Kommunikation: Der Einfluss von Macht auf die Sprache im Unternehmen*. München: Grin Verlag.
House, Juliane. 2005. "Politeness in Germany." In *Politeness in Europe*, 13–28. Clevedon: Multilingual Matters.
Kasper, Gabriele, and Shoshana Blum-Kulka, eds. 1993. *Interlanguage Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
Kienpointner, Manfred. 2008. "Impoverishing Pragmatics? The Case of Impoliteness." *Journal of Pragmatics* 40, no. 2: 242–271.
Kiyasbekov, T. 1908. *Elementarnaya grammatika sartovskogo yazyka*. Tashkent: M. P. Basalov.
Kotthoff, Helga, and Helen Spencer-Oatey, eds. 2007. *Handbook of Intercultural Communication*. Berlin: Mouton de Gruyter.
Luginbühl, Martin. 2014. *Gesprächsdynamik in der Wirtschaft*. Bern: Peter Lang.
Lüger, Heinz-Helmut. 2001. *Höflichkeit und Höflichkeitsstile*. Frankfurt am Main: Peter Lang.
Makhmudov, Nizomiddin. 1998. *O'zbek tilidagi so'roq gaplarning pragmatikasi*. Toshkent: Ma'naviyat.
Mo'minov, Sobirjon. 2011. *O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.
Muhammadrasul Rasuliy. 1911, 1914, 1917. *Rohbari forsi*. Toshkent.
Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxoja. 1913. *Turkcha qoida*. Toshkent.
Neugebauer, Monika. 2011. *Direktheit und Höflichkeit im interkulturellen Vergleich*. Frankfurt am Main: Lang.
Niyozova, Mohira. 2019. *Nemis va o'zbek tillarida murojaat shakllarining pragmatik tadqiqi*. Buxoro: Durdona.
Normamatov, S. 2022. *O'zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).* Toshkent: Bookmany Print.
Ogiermann, Eva. 2009. *On Apologising in Negative and Positive Politeness Cultures*. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins.
Searle, John R. 1969. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
Wierzbicka, Anna. 2003. *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Berlin: Mouton de Gruyter.
Xudoyberganova, Dilfuza. 2015. *Matnning antroposentrik tadqiqi*. Toshkent: Fan.